

Ukol Qilishga Oid Yo'l-Yo'riqlar va Ehtiyot Choralari

9
BOB

UKOL QILISH KERAKMI YOKI QILISH KERAK
EMASMI ?



Ukollar ko`pincha kerak emas.

Dori ichilganida ham ko`pgina kasalliklarda ukol bilan bir xilda yoki undan yaxshiroq davo bo`lishi mumkin. Umumiy qoida sifatida aytadigan bo`lsak:

Ukol qilish - dori ichishdan xavfliroq.

Ukollar faqat juda zarur bo`lib qolgandagina ishlatilishi mumkin. Kutilmagan hodisalardan tashqari, ular faqat tibbiyot xodimlari yoki ushbu muolajani qilishga o`rgatilgan odamlar tomonidan qilinishi kerak.

Ukol qilinadigan holatlar faqatgina quyidagilar:

1. Agar tavsiya etilgan dorining ichiladigan xili topilmasa.
2. Agar odam tez-tez qayt qilsa, kasalligi tufayli yuta olmasa yoki hushsiz bo`lsa.
3. Favqulodda voqea sodir bo`lganda yoki maxsus holatlarda (keyingi betga qarang).

SHIFOKOR UKOL TAVSIYA QILGANIDA NIMA QILISH KERAK?

Ba`zi shifokor va tibbiyot xodimlari ukol kerak bo`limgan paytlarda ham uni tavsiya qiladilar, chunki ko`p odamlar ukolni tabletkalardan foydaliroq deb o`ylaydilar, shu sababli shifokorlar ham aksari ukol tavsiya qiladilar.

1. Agar tibbiyot xodimi sizga ukol qilmoqchi bo`lsa, dori kasalligin-gizga to`gri tavsiya qilinganiga va xodimning ushbu amalni kerakli ehtiyot choralariga rioya qilib bajarayotganiga e`tibor bering.

2. Agar shifokor ukol yozib bermoqchi bo`lsa, undan ichiladigan dorini yozib berishini iltimos qiling.

3. Agar shifokor qoningizni tekshirib ko`rmay turib vitamin, jigar ekstrakti, yoki vitamin **B₁₂** ukollarini yozib bermoqchi bo`lsa, boshqa shifokorga borganingiz ma`qul.

QANDAY HOLATLARDA UKOL QILISH ZARUR

Quyidagi kasalliklarda shifokor yordamini iloji boricha tezroq oling. Agar yordam olish yoki bemorni kasalxonaga olib borish kechikadigan bo`lsa, kerakli ukolni iloji boricha tezroq qiling. Miqdorlar bo`yicha ko`proq ma`lumot olish uchun quyidagi betlarga qarang. Ukol qilishdan avval undan so`ng kutiladigan salbiy ta`sirlar haqida bilib oling va kerakli ehtiyot choralarini ko`ring (Yashil Sahifalarga qarang).


Quyidagi kasalliklarda	Ushbu dorilarni ukol qiling
Og`ir o`pka shamollashi (zo-tiljam) (315-bet). Tug`ruqdan keyingi infeksiyalar (501-bet) Gangrena (Qorason) (399- bet)	penitsillin - katta miqdorlarda (629-bet)
Qoqshol (347-bet)	penitsillin (629-bet) va <u>qoqshol anti-toksini</u> (608- bet) fenobarbital (669-bet) yoki diazepam (665, 669-bet)
Appenditsit(196- bet) Peritonit (196-bet) Qorinning o`q yoki boshqa (pichoq kabi) narsalardan jarohatlanishi	ampitsillin - katta miqdorlarda (634- bet) yoki penitsillin bilan gentamitsin yoki sefotaksim (643, 646-bet)

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Zaharli ilon chaqishi (211-bet) Chayon chaqishi (213-bet)	ilon antitoksini em dori (emlik) chayon antitoksini
Meningit (351-bet) (sil borligiga gumon qilmasangiz)	sefotaksim yoki seftriak- son(646-bet) berishning iloji bo`lmasa, juda katta miqdorlarda ampitsillin (634-betlar) yoki pen- itsillin (629-bet)
Silli meningit (351-bet)ni gumon qilsangiz	ampitsillin yoki penitsillin (strep- tomitsin bilan birga) (634, 631, 429 - betlar) va iloji bo`lsa, silga qarshi boshqa dorilar 687-bet)
Qayt qilish (299-bet)ni to`xtatish- ni nazorat qilib bo`lmasa	antigistamin dorilar, masalan: pipolfen (prometazin)
Og`ir allergik ta`sir- allergik shok (159-bet) va og`ir astma (308-bet)	Epinefrin (<i>Adrenalin</i> , 611-bet) va agar iloji bo`lsa difengidramin (<i>Dimedrol</i> 610- bet)

Quyidagi surunkali kasalliklarda ukol qilish kerak bo`lib qolishi mumkin, lekin ular juda kam uchraydigan, kutilmagan hollardir. Davolanish bo`yicha tibbiyot xodimidan maslahat olish yaxshidir.

Sil (342-bet)	streptomitsin (643-bet) bilan silga qarshi dorilar (687-bet)
Sifilis (439-bet) Zahm	Benzilpenitsillin-Benzatin(<i>Bitsil- lin</i>), (katta miqdorlarda) (632-bet)



QACHON UKOL QILMASLIK KERAK:

- => Hech qachon: tez tibbiy yordam olishingiz mumkin bo'lsa ukol qilmang.
- => Hech qachon: jiddiy (og'ir) bo'lmagan kasalliklarda ukol qilmang.
- => Hech qachon: shamollash yoki grippda ukol qilmang.
- => Hech qachon: siz davolamoqchi bo'lgan kasallikka tavsiya qilinmagan dorini ukol qilmang.
- => Hech qachon: aytilgan ehtiyot choralarini ko'rmasdan yoki bu amalni bilmasdan turib ukol qilmang.

UKOL QILINMAYDIGAN DORILAR

Umuman, quyidagi dorilarni **hech qachon** ukol qilmagan yaxshi:

1. **Vitaminlar.** Kamdan-kam hollarda ukol qilingan vitaminlar ichilganlaridan yaxshiroq bo'ladi. Ukollar qimmatroq va xavfliroqdir. Vitamin ukollaridan ko'ra tabletkalari yoki siroplarini iching. Lekin vitamanga boy ovqat yeyish bari bir bundan yaxshiroq (222-223- bet).

2. **Jigar ekstrakti, vitamin B₁₂, va jektofer singari tarkibida temir moddasi bor ukollar.** Bu ukollar abstsess yoki xavfli ta'sirlar sababchisi bo'lishi mumkin (shok, 170-bet). Temir sulfat tabletkalari esa kamqonlikning deyarli hamma turlarida foydali (613-bet).

3. **Kalsiy.** Venaga qilinadigan bu ukol, asta-sekin qilinmasa, juda xavlidir. To'qimalarga yoki muskullarga qilinsa abstsess (gazak, yiringlash) berishi mumkin. Ukol qilish amalini bilmagan odam hech qachon kalsiy ukolini qilmasin.

4. **Penitsillin.** Penitsillin ukoli bilan davolanadigan deyarli hamma kasalliklar uning tabletkalari bilan ham davolanishi mumkin. Ukol qilingan penitsillin xavfliroq. Penitsillin ukollarini faqat xavfli infeksiyalar uchun ishlatning.

5. Levomitsetin (Xloramfenikol) yoki tetratsiklin. Bu dorilar ichilganda ko'proq va yaxshiroq foyda beradi. Ularning kapsulalari yoki siroplarini ukollari o'rniga ishlating (639 va 637-betlar).

6. Tomir ichiga yuboriladigan (TI) eritmalar (qon yuvadigan suyuqlik). Bu faqat jiddiy suvsizlanishda va faqat ushbu muolajani yaxshi biladigan odam tomonidan qilinishi kerak. Muolaja to'g'ri bajarilmasa xavfli infeksiyalarga yoki o'limga ham olib kelishi mumkin (133-bet).


7. Tomirga yuboriladigan dorilar. Tomirga ukol qilish juda xavfli bo'lgani sababli, ushbu muolaja faqatgina yaxshi o'rgatilgan odam yoki tibbiyot xodimlari tomonidan qilinishi kerak. „Faqat venaga yuborish uchun“ degan yozuvi bor dorilarni hech qachon muskulga (dumbaga) yubormang. Shuningdek, „faqat muskulga yuborish uchun“ degan yozuvi bor dorilarni venaga ukol qilmang.

EHTIYOT CHORALARI

Ukol qilinadigan barcha dorilarning xavflari va asoratlari: (1) ignadan o'tadigan mikroblar orqali kelib chiqqan infeksiyalar va (2) dorining allergik yoki zaharli ta'siridir.

1. Ukol qilayotganingizda infeksiya kirish xavfining oldini olish uchun hamma ishlatiladigan asboblarning tozaligiga katta e'tibor bering. Shprits va ignani ukol qilishdan avval qaynatish juda muhimdir. Qaynatgandan so'ng ignaga barmoqlaringiz yoki boshqa narsalar bilan tega ko'rmang.

Bir odamga ukol qilgandan so'ng o'sha shprits va ignani yana bir marta tozalab va qaynatib olmay turib boshqa odamga ishlatmang. Ukol qilish muolajasini ehtiyotkorlik bilan bajarish qoidalariga rioya qiling (keyingi betlarga qarang).



Bunga o'xshagan abstsess qaynatilmagan yoki steril bo'lmagan (qatron qilinmagan) ignadan kelib chiqadi.

Ukol qilishdan avval **qo`lingizni sovun bilan yaxshilab yuving.**

2. Dorining qanday ta`sir qilishi mumkinligini bilish va tavsiya etilgan ehtiyot choralarini ko`rish hamda ularga rioya qilish juda muhim.

Agar dori quyidagi allergik yoki salbiy ta`sirlarga sabab bo`lsa, o`sha dorini yoki unga o`xshash dorilarni boshqa bermang.



Tarvoq (eshakem) yoki qichishadigan toshmalar toshishi ukol qilingandan so`ng bir necha soatdan boshlab bir necha kun ichida paydo bo`lishi kuzatilishi mumkin. Agar o`sha dori yana o`sha odamga takroran ishlatilsa, u og`ir hollarga va hatto o`limga olib kelishi mumkin (170-bet).

- Toshmalar: teridagi olachipor shishla qichishadigan toshmalar (tarvoq), eshakem toshish
- biror joyda shishning paydo bo`lishi
- nafas qiyinlashuvi
- shok belgilari (170-bet)
- qisqa muddat bosh aylanib, ko`ngil aynishi (qayt qilmoqchi bo`lmoq)
- ko`rish qobiliyati muammolari
- qattiq bel og`rig`i, siyishga qiynalish
- quloqlar shang`illashi yoki karlik

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Bu bolaga sterillanmagan (mikroblardan tozalanmagan) igna bilan ukol qilingan.

Iflos igna infeksiya sababchisi bo'lgan va bundan so'ng katta, og'riqli abstsess (yiring to'plangan joy) paydo bo'lib bola isitmalagan. Natijada, abstsess, rasmda ko'rsatilgandek bo'lib yorilgan.

Bu bolaga shamollashga qarshi ukol qilingan edi. Lekin, unga umuman dori berilmasa ancha yaxshi bo'lar edi. Ukol davolashning o'rniga, bolaning azob chekishiga sabab bo'ldi.



OGOHO BO'LING: Agar iloji bo'lsa, ukoldan ko'ra uning o'rniga doim ichiladigan dorisini bering, ayniqsa, bolalarga.


Bunday muammolarning oldini olish uchun:

Faqat juda zarur bo'lgandagina ukol qiling.

◆ Eng yaxshisi bir marotaba ishlatiladigan shprits ishlatilgani yoki shishali shprits va ignalarni ukol qilishdan avval qaynatilgan va tozalangan etibor bering. Yaxshisi, bir marta ishlatiladigan shpritsdan foydalanish kerak.

◆ Faqat shu kasallikka tavsiya qilingan ukolni ishlatilgani va dorining ishlatiladigan muddatiga va aynimaganiga e'tibor bering.

◆ Ukolni belgilangan joyga qiling. Bolalar va chaqaloqlarning dumbasiga ukol qilmang. Undan ko'ra sonining tashqi tomonining tepasiga ukol qiling. (E'tibor bering! Ukol bu bola dumbasining **juda past qismiga** qilingan, u shu yerdagi nervni shikastlashi mumkin edi.)



AYRIM DORILARNI UKOL QILISHDAN KELIB CHIQADIGAN XAVFLI TA`SIRLAR

Quyidagi dorilar ukol qilingandan so`ng ba`zan, qisqa vaqt ichida "Allergik shok" deb ataladigan xavfli ta`sirni keltirib chiqaradi:

- penitsillin (ampitsillin ham)
- ot zardobidan qilingan antitoksinlar




chayon, ilon
zaharlariga
qarshi zardob,
qoqshol antitoksini



Agar bemor biror xil dori yoki shu guruhga kiruvchi boshqa dorilardan oldin ham allergik holatga tushgan bo`lsa (tarvoq yoki eshakem, toshma, qichishish, shish yoki nafas olishdagi qiyinchiliklar) va bu dori takroran ishlatilsa, uning xavfi va asoratlari murakkabroq bo`ladi.



ALLERGIK SHOK goho
kam ari chaqqanidan yoki
ichilgan dori ichilganida
bo`lishi mumkin.



Ukoldan bo`ladigan xavfli ta`sirning oldini olish uchun:

1. Ukollarni faqat zarur bo`lganda qiling.
2. Yuqorida aytilgan dorilarni ukol qilishdan avval ikki ampula epinefrin (*Adrenalin*, 694-bet) va bir ampula antigistamin (prometazin (pipolfen 610- bet)) yoki difengidramin (*Dimedrol*, 610-bet) larni tayyorlab qo`ying.
3. Ukol qilishdan avval kasaldan ushbu ukol qichishish yoki boshqa ta`sirlar sababchisi bo`lgan yoki bo`lmaganini so`rang. Agar kasal ham shunday desa, bu dori yoki shu guruhga kiruvchi boshqa dorilarning ukolini ham, tabletkasini ham bermang.
4. Qoqshol yoki ilon chaqishi kabi juda og`ir hollarda, agar antitoksinning allergik ta`sir berishi ehtimoli (agar odamning allergiyasi yoki astmasi bo`lsa yoki oldin ot zardobini olgan bo`lsa) bo`lsa, antitoksin yuborilishidan 15 minut oldin prometazin yoki dimedrol qiling: kattalar uchun 25 mg dan 50 mg gacha; bolalar uchun ularning yoshi va vazniga qarab (10 mg dan 25 mg gacha, 610-611-betlar).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

5. Allergik shok bo'lish-bo'lmasligini bilish uchun ukol qilgandan so'ng bemor bilan kamida 30 daqiqa birga bo'ling.

- badan terisining muzdek, nam bo'lib oqarishi, zahil tortib ketishi (sovuq terlash)
- quvvatsizlik yoki tomir va yurakning tez urishi
- nafas olishning qiyinlashuvi
- hushdan ketishi

6. Agar ana shu belgilar paydo bo'lsa, o'sha zahoti epinefrin (Adrenalin) qiling: kattalar uchun, 0.3-0.4 ml.; bolalar uchun, 1/4 ml. (to'rt dan bir qismini) va bemorni shokdan chiqarishga harakat qiling (170-bet). Keyin antigistaminlardan bering (677-bet).

PENITSILINDAN BO'LADIGAN NOJO'YA TA'SIRLARNING OLDINI OLISH


1. Yengil va o'rtacha infeksiyalarga qarshi

penitsillin ukolidan ko'ra tabletkalarini bering.



2. Ukol qilishdan avval odamdan so'rang:


„Penitsillin olganingizdan so'ng toshma, qichishish, shish kelishi singari hodisalar hech bo'lganmi yoki nafas qiyinlashganmi?“




Agar „ha“ degan javob bo'lsa penitsillin, ampitsillin yoki amoksitsilinlarni qilmang. Eritromitsin (636-bet) yoki sulfanilamid (640-bet) kabi antibiotiklarni ishlating.

3. Penitsillinni ukol qilishdan avval,

doim
EPINEFRIN
(Adrenalin)
ampularini
tayyorlab
qo'ying.



4. Ukol qilgandan so'ng



Bemor bilan kamida 30 min
birga bo'ling

5. Agar kasalning rangi o'chib,
yurak urishi tezlashsa, nafas olish
qiyinlashsa yoki u hushidan keta
boshlasa, o'sha zahoti muskulga
(yoki teri ostiga) (694-bet) EPINE-
FRINDAN (Adrenalin) 0.3 ml qil-
ing. Bolalar uchun uning choragini
ishlatib va 1 kerak bo'lsa har 10
daqiqada qaytaring.




UKOL QILISH UCHUN SHPRITSNI QANDAY TAYYORLASH KERAK

Imkoni bo'lsa sterilangan, bir marta ishlatiladigan plastmassa shpritslardan foydalaning. Imkoni bo'lmasa, shisha shprits va temir igna ishlatish mumkin, lekin bunda quyidagilarni bajarish shart:

Shpritsni tayyorlashdan avval qo'lingizni sovunlab yuving.

1. Shpritsni qism-
larga ajrating va
igna bilan 20-30
minut qaynating.




2. Qaynagan suvni
shprits yoki ig-
naga tegmasdan
to'king.




Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

3. Ignaning faqat pastki qalin qismini va shpritsning surgich tugmasini ushlang.




4. Maxsus ukol uchun ishlatiladigan suv ampulasini spirt bilan arting, so'ng uchini sindiring.




6. Shisha rezinkasini spirtda ho'llangan toza paxta bilan arting.


5. Va bu maxsus suv bilan shpritsni to'ldiring (Igna ampulaning tashqi qismiga tegmasin).




7. Ukol uchun ishlatiladigan maxsus suvni shishadagi kukunli dori bilan aralashtiring.




8. Dori erigunga qadar uni silkiting.



9. Shpritsni qayta to'ldiring.



10. Shpritsdagi havoni chiqarib yuboring.




Ignaga hech narsa bilan, hatto spirtlangan paxta bilan ham tegmaslikka harakat qiling. Agar mabodo, igna qo'lingiz yoki biror narsaga tegib ketsa, uni qayta qaynating yoki boshqa steril ignaga almashtiring.

UKOLNI QAYERGA QILISH KERAK?

Ukol qilishdan avval **qo'lingizni sovunlab yuving.**

Ukol dumba muskuliga, doim dumbaning tepa tomonidagi tashqi choragiga qilingani ma'qul




QANDAY QILIB UKOL QILISH KERAK


1. Terini sovunli suv yoki spirt bilan tozalang (qattiq og'riqning oldini olish uchun spirt ishlatilsa, spirt quriganiga e'tibor bering).

DIQQAT: Infeksiyalangan yoki toshmasi bor joylarga ukol qilmang.

Yosh bolalar yoki chaqaloqlarning dumbasiga ukol qilmang. Sonining **tepa tomonidagi tashqi** qismiga ukol qiling.






2. Ignani teriga to'g'ri sanching. (Agar tez harakat bilan qilinsa, kamroq og'riydi.)



3. Dori yuborishdan avval tortmani tortib ko`ring. (Agar shpritsga qon kirsang, ignani muskuldan chiqarib oling va boshqa joyga ukol qiling).

4. Agar shpritsga qon kirmasa, dorini sekin yuboring.


5. Shpritsni tortib oling va terini spirt bilan qayta tozalang.



6. Agar ko`p marta ishlatiladigan shpritslarni ishlatayotgan bo`lsangiz, ukol qilgandan so`ng shpritsni darhol chayqang. Shpritsga igna orqali suv olib chiqarib tashlang va keyin shpritsni alohida olib yuving. Qayta ishlatishdan avval uni qaynating

UKOLLAR QANDAY QILIB BOLALARNI NOGIRON QILISHI MUMKIN

Umuman, ma'lum ukollar sog'liq uchun muhimdir. Ukol qilinadigan dorilardan em dorilar bola sog'lig'ini saqlaydi va uni nogironlikdan himoya qiladi. Shunga qaramay, poliometitdan falaj (shol) bo'lib qolish xavfini kamaytirish uchun bolaning harorati ko'tarilganda yoki shamollash belgilari namoyon bo'lganda yoki biror boshqa infeksiyon kasalliklarda bolaga emlik va boshqa ukollarning qilinmagani ma'qul. Chunki bu falajsiz bo'lgan oddiy poliometit bo'lishi mumkin. Agar shunday bo'lsa, ukolning ta'sirida doimiy falaj(shol) kelib chiqishi mumkin.



POLIOMETITDAN FALAJ BO'LGANLARNING XAR 3 DAN BIRI UKOLDAN KELIB CHIQQAN

Shuni aytib o'tish joizki, poliometitga qarshi ishlatiladigan zamonaviy yangi emliklar bunday salbiy ta'sirlarga olib kelmaydi.


JIHOZLARNI QANDAY TOZALASH (STERILLASH) KERAK

SPID (OITS) (734-bet), sariq (321-bet) va qoqshol (347-bet) kabi ko'p kasalliklar kasal odamdan sog'lom odamga shprits, igna yoki boshqa sterillanmagan jihozlar (quloqni teshishda, ignalar bilan davolashda, tatuirovka yoki sunnat qilishda ishlatiladigan jihozlar) orqali yuqishi mumkin. Ko'p teri kasalliklari va abstsesslar ham shundan kelib chiqadi. **Har doim teri kesilganda yoki biror joy teshilgan holatda faqat sterillangan jihozlar ishlatilishi kerak.**

Quyida jihozlarni sterillashning ba'zi usullari berilgan:

- 20 minut qaynating. (Agar soatingiz bo'lmasa 1 yoki 2ta dona guruch solib qo'ying, guruch pishganda jihoz sterillangan bo'ladi.)

- 15 minut maxsus idishda (sterilizator) qaynating yoki yuqori bosim bilan avtoklav (bug'li sterilizator)da bug'lang.



Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- 20 daqiqaga 1 qism xlorli ohakdan va 7 qism suvdan tayyorlangan eritmaga yoki 70 % li etil spirtiga solib qo'ying. Imkoningiz bo'lsa, eritmalarini har kuni yangilang, chunki vaqt o'tgan sari ularning kuchi pasayadi. (Shprits ichini maxsus eritma bilan (olib chiqarish orqali) sterillaganingizga amin bo'ling.)

Agar siz yuqumli kasalligi bor odamga yordamlashayotgan bo'lsangiz, qo'llaringizni tez-tez sovunlab yuvib turing.